Karalli va takroriy limitlar orasidagi bog'liq	568
Mambetturdiyev Muxammedali	
Современные заимствования в русском языке (названия фаст-фуда)	572
Рабиева Рухшона Бобожоновна	
качественное высшее образование - основа инновационного прогресса Узбекистана	576
Расулов Илхом Инамович	
Texnologiyalar yordamida og'zaki tarjimani takomillashtirish: AI va avtomatik translyatsiya tizimlarining imkoniyatlari	580
Rajabova Umida Rajab qizi	
Kompyuter grafikasi vositalari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari	583
Ergasheva Dilafuz Chori qizi	
A Conceptual Teacher Digital Competence Model for Vocational Education	587
Alisher Jumanov, Guloyim Rakhimboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligi tushunchasi	591
Sa'dullayeva Nafisa Ilhomjon qizi, Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik talqini	594
Sapayeva Gulnoz Azimbayevna	
Zamonaviy va an'anaviy tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik ta'siri. O'zbekiston oilalarida qiyosiy tahlil	600
Tursunova Aziza Ixtiyorovna	
Tarbiyachi faoliyatida tarbiyalanuvchi shaxsni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	603
Yusupova Vasila Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

Ismoilova Gulrux Ulug'bekovna

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NOTM katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf darslarida fanlararo integratsiyaning ahamiyati, ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari, mashqlarni bajarishda zamonaviy yondashuvlar, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni tanlash usullari, integratsiya darajalari, integratsiyalashgan darslarning turlari va shakllari haqida nazariy ma'lumotlar hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ona tili, darslarda integratsiya, integrativ yondashuv, innovatsiya, didaktik talablar, epizodik rollar, til ko'nikmalari, faol ta'lim metodlari.

Abstract: The article provides theoretical insights and practical recommendations on the importance of interdisciplinary integration in primary school native language classes, opportunities for improving the quality of education, modern approaches to performing exercises, methods for selecting activities aimed at developing students' speech competence, levels of integration, as well as types and forms of integrated lessons.

Key words: integration, native language, integration in classes, integrative approach, innovation, didactic requirements, episodic roles, language skills, active learning methods.

Аннотация: В статье представлены теоретические сведения и практические рекомендации о значении междисциплинарной интеграции на уроках родного языка в начальных классах, возможностях повышения качества образования, современных подходах к выполнению упражнений, методах отбора упражнений, направленных на развитие речевой компетенции учащихся, уровнях интеграции, а также видах и формах интегрированных уроков.

Ключевые слова: интеграция, родной язык, интеграция на уроках, интегративный подход, инновации, дидактические требования, эпизодические роли, языковые навыки, активные методы обучения.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar, milliy o'zligimizni saqlab qolgan holda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayangan holda barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan. Shu nuqtai nazardan, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi – ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim poydevori sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Boshlang'ich sinfda beriladigan bilimlar, shakllantiriladigan ko'nikmalar hamda tarbiyaviy yo'nalishdagi yondashuvlar o'quvchining butun umri davomida bilim olishga, fikrlashga va o'zini anglashga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Shu jihatdan qaralganda, boshlang'ich sinf ona tili darslari alohida o'ringa ega bo'lib, bu darslar orqali bolalarga nafaqat grammatik bilimlar, balki tilning jamiyatdagi roli, ifoda vositasi sifatida tildan foydalanish madaniyati, milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan qarash tushunchalari ham singdiriladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Milliy ta'lim dasturi" boshlang'ich ta'lim mazmuni va sifatiga ham yangi yondashuvlarni olib kirdi. Ushbu milliy dastur asosida ta'lim jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich, o'quvchining yosh xususiyatlari, psixologik va ijtimoiy rivojlanish holati hamda pedagogik ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilmoqda. Xususan, ona tili fanining boshlang'ich sinflarda o'qitilishi bo'yicha ilgari surilgan ilmiy-metodik talablar mazkur fanning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishni ko'zlaydi. Dasturga ko'ra, ona tili darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda to'g'ri, ravon, ifodali va mantiqiy fikrlash, shuningdek, fikrni yozma va og'zaki shaklda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, bu darslar orqali bolalar matn ustida ishlash, savol-javob qilish, dalillash va muhokama yuritish kabi kommunikativ faoliyat elementlarini ham egallaydilar.



Biroq ushbu yutuqlarga erishish uchun boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish, uning mazmunini belgilash hamda metodikasini ishlab chiqish jarayonida qat'iy ilmiy-metodik talablar asosida yondashish zarurati tug'iladi. Bu talablar faqat mazmunni shakllantirish bilan cheklanmay, balki darsning tuzilmasi, metodlari, texnologiyalari, baholash mezonlari, o'quvchi faoliyatini rag'batlantirish va shaxsiy yondashuvni amalga oshirish yo'llarini ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'qituvchining roli, uning metodik tayyorgarligi, innovatsion yondashuvlarga egalik darajasi hamda ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Milliy dastur asosida belgilangan ilmiy-metodik talablar har bir ona tili o'qituvchisining kundalik amaliy faoliyatida yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrning asosiy talablaridan biri shuki, ajdodlardan qolgan boy ilmiy merosni yosh avlodga o'rgatishda, o'quvchilarning bilish faoliyati va tafakkurini rivojlantirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida yetakchi fan (predmet) hisoblangan ona tilining ichki va tashqi imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish zarur. Ya'ni dars jarayonida faqat bitta fanga oid bilimlarni berish bilan cheklanmay, o'rganilayotgan mavzu mazmuniga mos holda boshqa fanlarga oid tushunchalarni ham singdirish, ular yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish talab etiladi. Integratsiya barcha jabhalarga xos tushunchadir. Ushbu atama ta'lim sohasiga tatbiq etilganda ta'lim maqsadi va ta'lim shakli ma'nolarida qo'llanadi. Har ikkala holatda ham yaxlitlik va butunlik tamoyiliga asoslaniladi. Demak, integratsiya o'zaro bog'liqlik va yaxlitlik ma'nolarini anglatadi. Integratsiya jarayonining rivojlanishiga ilmiy bilishning taraqqiyoti katta ta'sir ko'rsatgan. Ilmiy bilimlar integratsiyasi yangi jamiyatni barpo etish sharoitida g'oyadan qonun darajasiga ko'tarildi. Integratsiya differensiyatsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar o'quv fanlari tizimining tuzilishida hamda o'quvchilarning bilimlarini umumlashtirish usullarini izlashda o'z ifodasini topadi. Integratsiya bir necha o'quv fanlarining yagona tizimga jamlanishini anglatadi, bunda ilmiy tushunchalar o'qitish metodlari va umumiy mazmun bilan uzviy bog'liq holda qaraladi. Koordinatsiya esa o'quv fanlarining o'zaro bog'liqlikda mukammal qayta ishlanganligini anglatadi.¹

"Pedagogik atamalar lug'ati"da integratsiya tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

- o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi;
- lotincha integratio so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ma'nolarini anglatadi;
- integer – to'liq, butun, yaxlit degan tushunchani bildiradi.

Integratsiya bir-biri bilan organik tarzda birlashish, o'zaro singish va natijada yangi, yagona, barqaror hamda umumlashgan yaxlit g'oyani hosil qilish jarayonidir. Professor R. Mavlonova va N. Raxmonqulovalar ham integratsiya atamasini ikki ma'noda talqin qiladilar: tizim yoki organizmning alohida tabaqalashtirilgan qismlari va vazifalarining o'zaro bog'liqlik holatini ifodalovchi tushuncha hamda shu holatga olib boruvchi jarayon; tabaqalashtirish jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshiriladigan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.²

G. F. Fedoresning "Ta'lim nazariyasi va amaliyotida integratsiya muammosi" nomli asarida pedagogik integratsiyaning mohiyati keng tahlil qilingan. Unda pedagogik integratsiya mohiyatini "insonni tarbiyalash fanidan" ajratib ko'rsatishga urinish kuzatiladi. Shu maqsadda muallif tomonidan yaxlitlik va uyg'unlik tushunchalari hamda ulardan kelib chiqadigan "yaxlit (butun) shaxs", "uyg'un rivojlangan shaxs", "integrativ va uyg'un fikrlash" kabi pedagogik atamalar keng qo'llaniladi. Yaxlitlik, uyg'unlik va integratsiya tushunchalari mazmunan bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Yuqorida keltirilgan izohlarda integratsiya butunlik va yaxlitlik ma'nolarida qo'llangan. Ayni paytda ta'lim sohasida integratsiya ko'proq "fanlararo aloqa" va "fanlarni yaqinlashtirish" tushunchalari bilan izohlanadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, integratsiya jarayonining asoslari klassik pedagogikaning uzoq tarixiga borib taqaladi va fanlararo aloqalar g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarda fanlararo bog'liqlik bilan integratsiya tushunchalari ko'pincha bir xil mazmunda qo'llangandek tuyuladi. Biroq integratsiya fanlararo bog'liqlikka nisbatan ancha keng tushuncha bo'lib, fanlararo aloqaning eng yuqori darajasi hisoblanadi.³

"O'zaro aloqada bo'lgan barcha narsalar aynan shu aloqada o'qitilishi kerak", – deb ta'kidlaydi Yan Amos Komenskiy. Bola ma'lum bir darsda muayyan hodisani o'rganar ekan, u faqat o'sha fan doirasida qolib ketmay, boshqa fanlardan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham amalda qo'llaydi.⁴

1 Zverev I.D. Integratsiya i "integrirrovanny predmet" // Biologiya v shkole. - Moskva. 1991. №5. - S.46-49

2 Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X., Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. - T.: Ilm ziyo, 2009. - 15 b.

3 Braje T.G. Integratsiya predmetov v sovremennoy shkole // Literatura v shkole. - Moskva. 1996.-№ 5.-S. 150-154.

4 Baxareva L.N., Integratsiya uchebnyx zanyatiy v nachalnoy shkole na kraevedcheskoy osnove I Nachalnaya shkola.- Moskva. 1991. - № 8. - S. 48.



Fanlar o'rtasidagi aloqadorlik va munosabatlar aynan shu faollikka yo'naltirilishi lozim. IX asrda yashab ijod qilgan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida fanlararo bog'liqlik masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Asarda bilimning deyarli barcha sohalar yoritilib, fandan fanga o'tib boriladi. Bu haqda muallif shunday yozadi: "Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zerik-tirmaslikdir. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurgandek bo'ladi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va 'har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat bor', deganidek, ularni o'rganishga qiziqish uyg'onadi. Bir xil narsa charchatadi va xotirani toliqtiradi".

M. Jumaniyozova o'z dissertatsiyasida "integral" va "integratsiya" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni ilmiy asosda yoritadi. Tadqiqotchi integrativ bilimlarning o'quvchilar bilimini yaxlitlashdagi rolini aniqlab, olamning fizik manzarasini shakllantirishda bilimlar integratsiyasi muhim asos bo'lishi mumkinligini isbotlaydi. Shuningdek, tabiiy fanlar, jumladan, fizika o'qitishda fizika va astronomiyaga oid integrativ bilimlarga tayangan holda ta'lim berish o'quvchilarda tabiat hodisalarining mohiyatini anglash, qonunlarning saqlanishi va umumiyligi hamda olamning moddiyligi kabi muhim metodologik bilimlarni samarali shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. O. I. Avazboyev "O'quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish" nomli tadqiqotida integratsiyani quyidagi turlarga ajratadi:

- integratsiyaning umummetodologik turi;
- integratsiyaning umumilmiy turi;
- integratsiyaning xususiy ilmiy turi.

A. Zunnunovning "Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari" nomli qo'llanmasida o'quv fanlarini integratsiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilib, badiiy adabiyot va tarix fanlarining o'zaro uyg'unligiga alohida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'lim masalalari pedagogika fanlari doktorlari R. A. Mavlonova va N. X. Raxmonqulovalarning "Boshlang'ich maktabning integratsiyalashgan pedagogikasi" nomli qo'llanmasida atroflicha yoritilgan. Ushbu asarda fanlarni birlashtirish g'oyasi ilgari surilib, boshlang'ich maktabda bilimning ikki sohasi yetakchi o'rin egallashi lozimligi ko'rsatib beriladi:

- birinchisi – tabiatshunoslik (bolani o'rab turgan tabiat bilan tanishtirish),
- ikkinchisi – jamiyatshunoslik (odamlar, jamiyat, muassasalar va ijtimoiy majburiyatlar bilan tanishtirish).

Gumanitar va tabiiy fanlar o'rtasidagi chuqur va keng aloqalar tarix, geografiya, tabiatshunoslik, grammatika va arifmetika materiallari orqali yoritib beriladi. Mualliflar boshlang'ich maktabda boshqa barcha fanlarni yagona o'quv majmuasiga integratsiyalovchi "bitta fan", ya'ni dunyoshunoslikni o'qitish g'oyasini ilgari suradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy-metodik talablar, avvalo, dars mazmunining aniqligi va maqsadiligi, bosqichma-bosqich rivojlantiruvchanligi, shuningdek, o'quvchining yosh xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Bizning tadqiqot ishimizda boshlang'ich sinflarda til o'rgatishning asosiy vazifasi o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, savodxonlik, o'qish malakalari, yozuv texnikasi hamda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat bo'lsa-da, bugungi kun yonda-shuvlarida bu elementlar yetarli emas. Endilikda har bir dars o'quvchining ijodiy tafakkurini shakllantirish, mustaqil fikrlashga undash, axborotni tahlil qilishga o'rgatish, o'z fikrini izchil bayon etishga tayyorlash kabi vazifalarni ham bajarishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchidan faqat bilim yetkazuvchi emas, balki metodik jihatdan qurollangan, innovatsion yondashuvlardan foydalana oladigan, didaktik vositalarni to'g'ri tanlaydigan hamda har bir darsni ijodiy tashkil eta oladigan shaxs sifatida namoyon bo'lishni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy dasturga ko'ra, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitilishi jarayonida ko'proq hayotiylik, amaliyotga yaqinlik, real kommunikatsiya muhitini yaratish hamda o'quvchilarda individual yondashuv asosida tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish lozim. Bu jarayonda metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, darslarda o'yinli metodlardan foydalanish, dialogik nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish, vizual ko'makchilar (rasm, sxema, jadval) yordamida til elementlarini tushuntirish, bolalar adabiyotidan namunalar asosida matn ustida ishlash orqali grammatik bilimlarni singdirish samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologik yondashuvlar – interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, multimedaviy materiallar va onlayn resurslardan foydalanish orqali darslar samaradorligi oshadi, o'quvchilarda ona tili darslariga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Ilmiy-metodik talablar baholash tizimiga ham alohida yondashuvni talab qiladi. An'anaviy baholash mezonlari (faqat xatolarni topish va to'g'rilash) hozirgi zamonaviy metodik qarashlarga to'liq mos kelmaydi. Milliy dastur bu borada differensial va formatif baholash turlarini taklif etadi. Jumladan,



o'quvchining darsdagi ishtiroki, o'z fikrini bildirishdagi faolligi, matn bilan ishlash qobiliyati, grammatik qoidalarni tushunishi va ularni amaliy qo'llay olish darajasi baholash mezonlarining muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Bu esa o'quvchilarning o'z bilimiga bo'lgan ishonchini oshiradi, tanqidiy tahlilga o'rgatadi va ularni doimiy izlanishga undaydi.

Ona tili darslarida o'quv materiallarini tanlashda ham muayyan metodik talablar mavjud. Ushbu materiallar bolaning yosh xususiyatlariga mos, milliy qadriyatlar bilan uyg'un, estetik va axloqiy tarbiya beruvchi, mavzuga oid, mazmunan boy hamda mantiqiy jihatdan sodda bo'lishi zarur. Darsliklarda keltirilgan matnlar, mashqlar va topshiriqlar o'quvchining aqliy rivojlanishiga mos holda tahliliy fikrlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Masalan, har bir matndan so'ng beriladigan savollar o'quvchini muloqotga kirishishga, matn mazmunini tushunishga, asosiy g'oyani aniqlashga, muallif fikrini sharhlashga va o'z pozitsiyasini bildirishga xizmat qilishi lozim. Bunday yondashuvlar orqali o'quvchining nafaqat til kompetensiyasi, balki adabiy-estetik dunyoqarashi ham shakllanadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslariga qo'yilgan talablar doirasida lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda kommunikativ va madaniy kompetensiyalarning shakllanishiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Til faqat aloqa vositasi emas, balki milliy madaniyatni, an'analarni, qadriyatlarni va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim omildir. Shu sababli o'quvchilar til vositasida o'z millatini anglashga va o'zligini tanishga yo'naltiriladi. Dars jarayonida xalq maqollari, matallar, afsonalar, milliy bayramlar hamda o'zbek xalqining urf-odatlarini bilan bog'liq matnlardan foydalanish orqali tilni o'rganish madaniy kontekstda amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilarda ona tiliga bo'lgan mehrni oshirish, uni qadrlash va asrab-avaylash hissiyotlarini shakllantiradi.

Ilmiy-metodik talablar darsni tashkil etishning texnologik jihatlarini ham belgilaydi. Har bir darsda kirish, asosiy qism, mustahkamlash va yakunlovchi bosqichlar aniq rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Darsning har bir bosqichi o'z vazifasiga ega bo'lib, ular o'zaro bog'liq va mantiqiy izchillikda amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir bosqichda o'quvchilarning faolligini ta'minlashi, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishi, muammoli vaziyatlar orqali izlanishga undashi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi zarur. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsga qiziqish uyg'otishda kreativ yondashuvlar – teatr elementlari, drammatizatsiya, rolli o'yinlar hamda ijodiy yozuvlar (hikoyani davom ettirish, dialog tuzish, topshiriq asosida matn yaratish) samarali hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

- kollaboratsiya – jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini rivojlantirish;
- kommunikativlik – samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- kreativ fikrlash – yangicha g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal etishga intilish;
- tanqidiy fikrlash – mustaqil fikr yuritish va masalaga tahliliy yondashish.⁵

O'zbekiston Respublikasining 2020-09-23 dagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son⁶ Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2017-03-15 dagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son⁷ qarori hamda Prezident Administratsiyasining 2023-04-27 dagi 08-740-sonli topshirig'iga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishda uzluksizlik va izchillikni ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejalari tasdiqlangan. Mazkur rejalarga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'quv soatlarining taqsimlanishi quyidagicha belgilangan:

- "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha 1-sinfda o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 4 soat "Alifbe", 4 soat "Yozuv", 3–4-choraklarida esa haftasiga 8 soat "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani o'qitiladi;
- 2–4-sinflarda haftasiga 4 soat "Ona tili" va 3 soat "O'qish" fani o'qitiladi.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi bugungi kun talablari, ya'ni Milliy dasturga mos ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. Bunday darslar jarayonida faqat til qoidalarini o'rgatish bilangina cheklanib qolmasdan, balki o'quvchilarning shaxsiy, aqliy, axloqiy, madaniy hamda ijtimoiy jihatdan har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. Til vositasida fikrini erkin ifodalay oladigan, muloqotga kirisha biladigan va ijodiy yondasha oladigan o'quvchi har jihatdan yetuk va barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois har bir o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatiga yondashishda ta'lim mazmuni, metodlari va motivatsiya omillarini uyg'unlashtirgan holda, har bir darsni hayotbaxsh, ma'naviy-axloqiy va didaktik yutuqlarga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishi lozim. Faqat shundagina boshlang'ich ta'lim bosqichida ona tili darslari haqiqiy ma'noda shaxs kamolotining mustahkam poydevoriga aylanadi.

5 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risidagi 125-son buyrug'i

6 <https://lex.uz/docs/-5013007>

7 <https://test.lex.uz/docs/-3137130>



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'i.
2. Zverev I. D. Integratsiya i "integrirovanny predmet" // Biologiya v shkole. Moskva, 1991. № 5. B. 46–49.
3. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent: Fan, 2008. 50 b.
4. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. X. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent: Ilm ziyo, 2009. 15 b.
5. Fedorets G. F. Mejpredmetnye svyazi. Leningrad, 1983. 88 b.
6. Braje T. G. Integratsiya predmetov v sovremennoy shkole // Literatura v shkole. Moskva, 1996. № 5. B. 150–154.
7. Baxareva L. N. Integratsiya uchebnyx zanyatij v nachalnoy shkole na kraevedcheskoy osnove // Nachalnaya shkola. Moskva, 1991. № 8. B. 48.
8. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1-jild. Toshkent: Fan, 1968. 22 b.
9. Jumanioyova M. Fizika o'qitishda integrallashgan bilimlar va ulardan foydalanishning uslubiy asoslari: ped. fan. nomz. dis. Toshkent, 2008.
10. Avazboev O. I. O'quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish: ped. fan. nomz. dis. Toshkent, 2001. 73 b.
11. Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. Toshkent: Sharq, 2005.
12. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2001. 146 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.